

**IS'HOQ OTA ZIYORATGOH TARIXI.****Yuldoshev Dilshod Jalol o'g'li****Mamatqulov Egamnazar Nuriddin o'g'li**

Termiz davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14729063>

Annotatsiya Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani hududida joylashgan Is'hoq ota ziyoratgohi tarixi va bugungi kundagi holati haqida tarixiy manba va adabiyotlar orqali ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Is'hoq ota ziyoratgohi, ziyorat, ziyoratgoh, qadamjo, turizm, ziyorat turizmi, tarixiy – madaniy me'ros.

Аннотация: В данной статье на основе исторических источников и литературы представлены сведения об истории и современном состоянии усыпальницы Исаак Ата, расположенной в Миришкорском районе Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: усыпальница Исаак Ата, паломничество, паломничество, паломничество, туризм, паломнический туризм, историко-культурное наследие.

Abstract: In this article, historical sources and literature provide information about the history and current state of the shrine of Isaac Ata, located in Mirishkor district, Kashkadarya region.

Keywords: Isaac Ata's shrine, pilgrimage, tourism, pilgrimage tourism, historical and cultural heritage.

KIRISH.

Mustaqillik yillarida sovet davridan farq qilgan holda xalqning ma'naviyati, o'zligi qaytishi bilan mazkur ziyoratgohlar nafaqat turizm, balki tarixiy-madaniy meros obyektiga aylantirilib, ularning har biri davlat ro'yxatiga olindi. Tarixchi olim A.Choriyev Qashqadaryo viloyat hududida saqlangan tarixiy obidalar va ziyoratgoh qadamjolarining umumiy sonini 78 ta ko'rsatib, eng qadimiysi IX – XII asrlar, aksariyati XVI va XIX asrlar me'moriy yodgorliklari tashkil etishini qayd etadi¹. Arab geografi va tarixchisi Yoqut Hamaviyning guvohlik berishicha, o'rta asrlardayoq Movarounnahr hududida 4000 ta qal'a mavjud bo'lgan. Ayni kunlarda ular Qashqadaryo viloyati hududida ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Birgina Qarshi tumanida rasman 123 ta tarixiy yodgorlik ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 59tasi qadimgi va o'rta asrlarda bunyod qilingani aniqlangan. Qadimiy asarlarda Nasaf (Qarshi) mulkida 182 nafar avliyo yashab o'tgani qayd qilingan². Ushbu avliyolardan biri Is'hoq Muhammad bo'lib, Is'hoq ota ziyoratgohi Mirishkor tumanidagi Pomuq qishlog'idan 60 km, Qarshi shahridan



130 km uzoqlikda joylashgan. Bu ziyoratgoh ko'chma qumlardan iborat Pomuq cho'lining "Nor o'ldi" hududida joylashgan bo'lib, aholi yashaydigan manzilgohlardan unga eng yaqini Pomuq qishlog'idan. Qadim cho'ldagi suruv surgan chorvadorlarning piri murshidi deya yetti asrdiki, e'tirof etiladi, o'zbek, turkman va arab elatlarining ixlos qiladigan maskani hisoblanadi³. Ishoq otaning asli ismlari xonzoda Muhammad al-Mashhur Kurra hoja Atoyi o'g'li Ishoq shayx bo'lib, XII asr oxiri, XIII asrning boshlarida yashab o'tgan islom olamidagi shayxlardan biridir. U zot ona tomondan Yassaviy tariqatining asoschisi bo'lmish ulug' zotlardan biri xoja Ahmad Yassaviyning nevaralari Gavhar Shahnozbeginndan tug'ilgan bo'lib, ota tarafdin esa buxorolik Xusayn shayx Atoyi avlodlaridan bo'ladi. Rivoyatlarga ko'ra, Is'hoq Muhammadning ilmi shu darajada kuchli bo'lganki, yuz chaqirim naridagi bosqinchini idrok etib, himoyalanihga chorlagan. Qolaversa, ko'zi shu qadar o'tkir bo'lganki, hatto oydagidagi dog' orqali yerdagi hodisalarni sharh etib, bosqinchilar, turli o'lat va kasalliklarni avvaldan bildirib chorvadorlarni baloqazolardan asragan⁴. Ammo mo'g'ul bosqinchilari tayyor chorva mollaridan manfaat ko'rgani bois ularning piri murshidlaridan ham xabar topadi va undan qutulish uchun barcha choratadbirlarni ko'radi. Is'hoq Muhammad ota mo'g'ul bosqinchilari tomonidan hozirgi maqbara o'rnida shahid bo'lgan. Ammo hazratning poklari og'alari Qusam Muhammad tomonidan olib ketiladi va Pudina qishlog'ida Is'hoq Muhammad ham osuda yotibdilar. Piri murshid qoni to'kilgan muqaddas maskanni asrlar davomida mahalliy aholi e'zozlab kelganlar, ziyoratgoh ko'p millatli chorvadorlarning ixlos qo'ygan joyiga aylangan. Milliy ma'naviyatimiz sarchashmasi bo'lgan ziyoratgoh Pomuq cho'lining eng baland nuqtasida o'rnashgan. Shuningdek, Is'hoq ota haqida xalq orasida turli afsona va rivoyatlar ham tarqalgan. Quyida mazkur rivoyatlardan biri keltiramiz Mirishqor tumanidagi Is'hoq ota ziyoratgohigi bahor oylari ziyoratchilar eng ko'p tashrif buyuradigan payt bo'lib, shanba, yakshanba kunlari bu yerga keluvchilar soni ming nafardan ham oshib ketadi.⁵Yurtimiz istiqbolga erishgandan so'ng bu tabarruk qadamjoni ham ravnaq topdi. Ziyoratgoh 1995 – 2000-yillarda Baxoriston tumani hokimi vazifasida ishlagan Xayit Tojiyev tomonidan 1998-yil "Is'hoq ota" hayriya jamg'armasi tashkil etildi va shu yili xalq tomonidan hashar qilinib, sag'ana ustiga muhtasham maqbara tiklandi.⁶Bu joyga Mirishkor tumanining Jeynov, Chandir, Mirishkor, Guliston, Vori, Elobod, Obod, Avazcho'l, Yangiobod, Gunshanbog', Zafar, Pomuq, Nayiston qishloqlari va qo'shni Buxoro viloyatining Qorako'l, Olot tumanlaridan tashqari qo'shni Turkmaniston Respublikasi va mamlakatimizning turli gushalaridan ham kuniga yuzlab



POLAND



POLAND

ziyorchilar kelib turadi. Bu esa xalqlarimiz o'rtasidagi inoqlik, diniy hamjihatlikning azaliy qadriyat ekanligidan yaqqol darak beradi.⁷ Ziyoratgohda olisdan tashrif buyurgan ziyorchilar uchun tunab qolishlariga shinam xonalar qurilgan. Manzil atrofida ko'kka bo'y cho'zgan tut va qayrag'och daraxtlari soyasida ziyorchilar hordiq chiqarishadi. Ziyoratgohning shundoqqina yaqinida ziyorchilar tomonidan niyat qilib so'yilgan qo'y-qochqorlar go'shtidan har xil taomlar pishirish uchun joy ham tashkil etilgan. Bu yerdagi daraxtlarni ham ziyorchilar yaxshi niyatlar bilan o'tkazishganini aytishadi. Is'hoq ota Eron zaminining Isfahon deb atalgan shahrida yashab, o'zlarining haqgo'yiligi bilan tanilgan, shu bilan birga munofiqlik, zolimlik, urushqoqlik kabi illatlarning yo'liga to'g'anoq bo'lishliklari bilan dovrug' taratgan ekanlar. Turkmi, arabmi yoki forsmi u kishini bilgan har bir el Is'hoq otani o'zlariga yaqin olisharkan. Ba'zi elatlar orasida hatto "Is'hoq ota bizning qavmimizdan" degan munozaralar ham bo'lib turarkan. Bunday tortishuvlarni ko'rib, "hayotligimda meni shunchalik munozara qilishadi, ko'z yumsam qabrimni o'z manzillariga bo'lishligini istab, ular o'rtasida janjallar chiqmasmikin?", degan o'y Is'hoq otani ko'p aziyat chektirarkan. Kunlarning birida Is'hoq ota atrof manzillardagi jamoalarning oqsoqollarini o'z huzuriga taklif etibdi va: "Yoshim ham anchaga borib qoldi. Paymonam to'lgan kuni birlashib uchta oq tuyani anjomlari bilan hozirlaysizlar. Uchta mustahkam sandiq ham yasatib qo'yinglar. Jasadim kafanlangandan so'ng esa birinchi xalifam hech kimga ko'rsatmasdan jasadimni sandiqlardan biriga joylasin. Qolgan sandiqlarga ham mening og'irligimcha narsa solsin. Har uchala sandiqlarni qulflab, tuyalarga yuklanglar. Shundan so'ng tuyalarni yaydoq dalaga chiqarib, qo'yib yuboringlar. Qaysi tuya qayerga cho'ksa qabr qazib, sandiqni ochmasdan o'sha yerga ko'minglar. Sizlarga birdan – bir vasiyatini ana shu!", debdi. Oradan ko'p vaqt o'tmasdan Is'hoq ota bu dunyodan ko'z yumibdi. Oqsoqollar jam bo'lishib, vasiyatini ado etishibdi. Bir necha kundan so'ng tuyalarning biri Afg'oniston zaminiga, yana biri Eron zaminining o'ziga, uchinchi esa Jayhun daryosidan o'tib, Turon zaminining Pomuq cho'llarida hozirda "Isoq ota" qadamjosi nomi bilan mashhur bo'lgan makonga kelib cho'kibdi. Tuyalarni kecha – kunduz kuzatib kelayotgan sadoqatli shogirdlar har uchala joyda qabr bunyod etishibdi. O'sha – o'sha Is'hoq ota jasadi qaysi sandiqda bo'lgan-u, qaysi qabrga dafn etilgani siriligicha qolaveribdi. Oradan ming yillar o'tishiga qaramasdan, har uchala joy ham e'tiqodli odamlarning ziyoratgohlariga aylanib kelayotgan ekan..."

Xulosa.



POLAND



POLAND

Istiqlolning dastlabki yillarida tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolarini obod qilish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Qadim Turkiston tuproqlarida dunyoga dovrug' taratgan Islom madaniyati, ilm-u fan rivoji, insoniyat kamoloti uchun munosib hissa qo'shgan aziz avliyolar, olim-u ulamolarning tabarruk manzillari mavjud. Ularni asrab avaylash esa bizning vazifamiz. O'tmishni avaylash, tarixiy obidalarni e'zozlash, osori – atiqalarni, qolaversa, xalqimizning buyuk o'tmishi yashayotgan ijtimoiy hayoti va kelajagi bilan bevosita bog'liqdir. Bu xususiyatlar millatimiz va xalqimizning milliy qadriyati bo'lib, azaldan ularning qon – qoniga singib ketgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati: (references):

1. Choriyev A. Hazrati sulton Mir Haydar ota manoqibi. – Toshkent: 2016.
2. Sharopov Sh., Xoliyorov I. Is'hoq buva ziyoratgohi. – T., 2016.
3. Ashurova Sh. Meros abadiyati. – T., 2022.
4. Obod bo'lgan ziyoratgoh // Qashqadaryo, 2011-yil 26-iyul.
5. Anorova O. Abadiyat mehvari. – T., 2004.
6. Murodov Sh. El-ulus ulug'lovchi qadamjo //

